

ADABIY MATNNI O'QITISHDA GENDER MASALASI: NAZARIY VA AMALIY YONDASHUVLAR

Jumaqulova Nargiza Sunatulla qizi,

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti o'qituvchisi
nargizabonujumakulova@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada adabiy matnni o'qitish jarayonida gender masalasi nazariy va amaliy yondashuvlar asosida kompleks tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida o'quv dasturlari va darsliklarning kontent-tahlili, qiyosiy adabiy tahlil hamda dars jarayonlari kuzatuv metodlaridan foydalanildi. Natijalar adabiy ta'lim jarayonida mavjud genderga oid yashirin me'yorlar o'quvchilarning matnni talqin qilish imkoniyatlarini cheklashini ko'rsatadi. Shu asosda genderga nisbatan muvozanatli yondashuvni ta'minlovchi, nazariy va amaliy jihatlarni uyg'unlashtiruvchi didaktik model taklif etiladi.

Kalit so'zlar: gender, adabiy ta'lim, adabiy matn, kontent-tahlil, narrativ tahlil, aksiologik yo'naltirish.

Abstract. This article analyzes gender issues in the teaching of literary texts through theoretical and practical approaches within a comprehensive framework. The research methodology includes content analysis of curricula and textbooks, comparative literary analysis, and classroom observations. The findings reveal that implicit gender norms in literary education limit students' interpretative potential. Based on these results, a didactic model is proposed that integrates theoretical and practical dimensions while ensuring a balanced gender-sensitive approach.

Keywords: gender, literary education, literary text, content analysis, narrative analysis, axiological orientation.

Аннотация. В данной статье гендерная проблематика в обучении литературному тексту рассматривается на основе теоретических и практических подходов в рамках комплексного анализа. В качестве методов исследования использованы контент-анализ учебных программ и учебников, сравнительный литературный анализ, а также наблюдение за учебным процессом. Результаты показывают, что скрытые гендерные нормы в литературном образовании ограничивают интерпретационные возможности учащихся. На этой основе предлагается дидактическая модель, объединяющая теоретические и практические аспекты и обеспечивающая сбалансированный гендерно-ориентированный подход.

Ключевые слова: гендер, литературное образование, литературный текст, контент-анализ, нарративный анализ, аксиологическая направленность.

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimida shaxsga yo'naltirilgan yondashuvning ustuvor ahamiyat kasb etishi adabiy ta'lim mazmunini qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Xususan, adabiy matnni o'qitish jarayonida o'quvchining mustaqil fikrlashi, estetik didi va talqin qilish kompetensiyasini rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, ta'lim jarayonida gender omilini hisobga olish masalasi alohida dolzarblik kasb etadi. Adabiy ta'limda gender masalasi faqat matn mazmuni bilan cheklanmay, balki o'qitish metodlari, talqin jarayoni va baholash tizimiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, badiiy matnlar orqali jamiyatdagi ijtimoiy rollar va stereotiplar o'quvchilar ongida shakllanadi [5, p. 150; 6, p. 92]. Mazkur maqolaning maqsadi adabiy matnni o'qitishda gender masalasini nazariy va amaliy yondashuvlar asosida tahlil qilish hamda o'quv jarayonida genderga nisbatan muvozanatli yondashuvni ta'minlovchi didaktik modelni asoslashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish

uchun adabiy ta'lim mazmuni, o'qitish metodlari va baholash jarayonlarida gender omilining namoyon bo'lish xususiyatlari kompleks tarzda o'rganiladi.

Metodologiya. Mazkur tadqiqot sifat jihatidan tavsifiy-tahliliy va qiyosiy yondashuvlarga tayangan holda tashkil etildi. Tadqiqotning empirik bazasini umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun mo'ljallangan adabiyot darsliklarining yangi va amaldagi nashrlari tashkil etdi. Asosiy manba sifatida 10-sinf uchun yangi nashr adabiyot darsligi tanlandi [1, 113-b.]. Materiallar maqsadli saralash usulida tanlanib, gender jihatdan mazmunli matnlar ajratib olindi [1, 116–118-b.]. Kontent-tahlil jarayonida uchta asosiy birlik belgilandi: matn tanlovi, interpretativ apparat va aksiologik yo'naltirish [6, 62-b.]. Darslikning kirish qismida adabiyot fanining asosiy obyekti badiiy asar ekani, mutolaa va tahlil o'quvchining dunyoqarashi hamda o'zini anglash jarayoniga xizmat qilishi ta'kidlanadi. Bu holat tadqiqotda gender yondashuvini aynan matn, talqin va didaktik yo'naltirish birlikda o'rganish uchun metodik asos bo'lib xizmat qildi.

Materiallar maqsadli saralash usulida tanlanib, gender jihatdan mazmunli yoki gender talqini uchun imkon beruvchi matnlar, shuningdek, shu matnlarga ilova qilingan savol-topshiriqlar, izohlar va xulosa qismlari ajratib olindi. Xususan, 10-sinf darsligida Nodira, Uvaysiy, Dilshodi Barno va Anbar Otin kabi ayol ijodkorlar alohida adabiy-madaniy hodisa sifatida kiritilgani, ularning ijodi ijtimoiy muhit, ayol taqdiri, erkinlik, sadoqat va ona timsoli bilan bog'liq holda talqin etilgani kuzatildi. Darslikda o'quvchiga "agar Nodira, Uvaysiy, Dilshodi Barno singari shoirlar og'ir ijtimoiy muhitda yashamaganida mashhur bo'la olarmidi" kabi savollar berilishi gender masalasining nafaqat matn mazmunida, balki didaktik yo'naltirishda ham mavjudligini ko'rsatadi. Shuningdek, Uvaysiy ijodi misolida ona timsoli, ayol huquqining cheklanishi va ayol erki bo'g'ilgan davr tasviri bevosita o'quv tahliliga olib kirilgan.

Kontent-tahlil jarayonida uchta asosiy birlik belgilandi. Birinchi birlik matn tanlovi bo'lib, unda darslikka kiritilgan mualliflar tarkibi, ayniqsa ayol va erkak ijodkorlar nisbatiga e'tibor qaratildi. Ikkinchi birlik interpretativ apparat bo'lib, bunda matndan keyingi savollar, muhokama topshiriqlari, rubrikalar va xulosalar tahlil qilindi. Uchinchi birlik aksiologik yo'naltirish bo'lib, unda matn va topshiriqlarda ayol va erkak obrazlariga qanday ma'naviy, estetik va ijtimoiy mazmun yuklatilgani o'rganildi. Masalan, darslikda ayol ijodkorlar merosi "haqiqiy o'zbek ayolining ma'naviy qiyofasi" bilan izohlanishi bir tomondan tarixiy-madaniy qadriyatlarni ifodalasa, ikkinchi tomondan gender me'yorlarining normativ shaklda berilishini ko'rsatadi.

Qiyosiy tahlil usuli yordamida bir xil darslik doirasida turli davr va turli jins vakillari ijodining taqdim etilish usullari solishtirildi. Jumladan, 10-sinf darsligida qadimgi og'zaki adabiyot namunalaridan To'maris obrazining kiritilishi ayol qahramonlik modelining tarixiy qatlamda mavjudligini ko'rsatsa, XIX asr ayol shoirlari bo'limida ayolning ijtimoiy maqomi, ruhiy holati va erkinlik talabi ustuvor mazmun sifatida namoyon bo'ladi.

Shu tariqa, darslik ichidagi matnlar ketma-ketligi gender obrazlarining tarixiy va estetik transformatsiyasini kuzatish imkonini berdi.

Tadqiqotda qo‘shimcha qiyosiy manba sifatida 11-sinf adabiyot darsligi ham jalb etildi. Ushbu darslik 2018-yilda nashr qilingan bo‘lsa-da, maktab amaliyotida uzoq vaqt foydalanilgan manba sifatida tadqiqot uchun muhimdir. Undagi ayrim o‘rinlarda Nodira va Uvaysiy nomlarining adabiy meros va ma‘rifiy qadriyatlar kontekstida tilga olinishi ayol ijodkorlar milliy adabiy xotirada mustahkam o‘rin tutganini ko‘rsatadi. Biroq 10-sinf yangi nashr darsligida bu qatlam ancha batafsil, savol-topshiriqlar bilan birga va gender mazmunini ochishga qulayroq shaklda berilgani kuzatildi. Shu sababli tadqiqotda asosiy tahliliy og‘irlik yangi nashr 10-sinf darsligiga berildi, 11-sinf darsligi esa qiyosiy fon vazifasini bajardi.

Ma‘lumotlarni talqin qilishda interpretativ-pedagogik yondashuv qo‘llanildi. Ushbu yondashuv asosida matnning o‘zi bilan bir qatorda, uni o‘quvchi qanday savollar orqali o‘zlashtirishi, qanday qadriyatlarga yo‘naltirilishi va baholash jarayonida qaysi pozitsiyalar rag‘batlantirilishi tahlil qilindi. Darslikning kirish qismida o‘quvchining asar orqali “boshqa bir hayotni yashab o‘tishi”, hayot haqidagi qarashlarini boyitishi va o‘zini taftish etishi qayd etilgani metodologik jihatdan muhimdir, chunki gender masalasi aynan shu o‘zini anglash va boshqani tushunish jarayonida namoyon bo‘ladi.

Ishonchlilikni ta‘minlash maqsadida metodlar triangulyatsiyasi tamoyili qo‘llandi. Ya‘ni matnning o‘zi, unga berilgan metodik yondashuv va darslik materialini o‘zaro tutashtirildi. Natijada gender masalasi faqat muallif yoki qahramon jinsiga qarab emas, balki matn tanlovi, talqin yo‘riqlari, qadriyaviy urg‘ular va o‘quvchiga berilgan savollar tizimi orqali aniqlashtirildi. Shu metodologik yondashuv adabiy matnni o‘qitishda gender omilining yashirin va ochiq ko‘rinishlarini ilmiy asosda tahlil qilish imkonini berdi. Yangi tahrirdagi adabiyot darsliklarida gender masalasi bevosita nazariy tushuncha sifatida emas, balki badiiy matnlar va ularga berilgan metodik yo‘riqlar orqali bilvosita ifodalanadi. Xususan, 10-sinf adabiyot darsligida ayol ijodkorlar merosining kiritilishi adabiy ta‘lim mazmunini kengaytirish bilan birga, genderga oid ijtimoiy va madaniy tasavvurlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Darslikda Nodira ijodiga berilgan o‘rin ayol shaxsining tarixiy-madaniy kontekstdagi mavqegini ochib berishga qaratilgan. Xususan, matn va izohlarda uning ijodi orqali sadoqat, matonat va ijtimoiy mas‘uliyat kabi sifatlar ta‘kidlanadi. Shu bilan birga, darslikdagi savollardan biri “shoiraning murakkab ijtimoiy sharoitda yashaganini uning ijodiga qanday ta‘sir ko‘rsatganini izohlang” tarzida berilishi o‘quvchini genderga bog‘liq tarixiy shart-sharoitlarni tahlil qilishga undaydi. Bu yondashuv genderni faqat biologik emas, balki ijtimoiy-madaniy konstrukt sifatida anglashga xizmat qiladi. Uvaysiy ijodi misolida esa ayolning ichki kechinmalari, ona timsoli va ijtimoiy cheklovlar muammosi markaziy o‘ringa chiqadi. Uning she‘rlari tahliliga oid topshiriqlarda “ona qalbining iztiroblari va jamiyatdagi o‘rni qanday ifodalanganini aniqlang” kabi savollar berilishi o‘quvchini matnni gender nuqtai nazaridan

talqin qilishga yo'naltiradi. Bu esa interpretativ kompetensiyaning rivojlanishida muhim metodik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Dilshodi Barno va Anbar Otin ijodi esa ayolning ma'rifiy faoliyati va ijtimoiy ongdagi o'rnini ochib berishga xizmat qiladi. Ijodkorlar faoliyati "ma'rifatparvarlik" va "axloqiy tarbiya" kontekstida talqin qilinadi. Masalan, topshiriqlarda "shoiraning jamiyatdagi o'rni va faoliyati orqali qanday ijtimoiy g'oyalar ilgari surilganini tahlil qiling" kabi vazifalar berilishi gender masalasining amaliy-didaktik darajada ochilayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, bu yondashuvda ayol obrazining ko'proq ijtimoiy foyda va ma'naviylik bilan bog'lanishi ma'lum darajada normativ gender stereotiplarini mustahkamlashi mumkin. Xalq og'zaki ijodi namunasi sifatida keltirilgan To'maris obrazi esa ayolning tarixiy qahramonlik modeli sifatida talqin qilinadi. Ushbu obraz orqali o'quvchilarga ayolning faqat maishiy yoki oilaviy rol bilan cheklanmasligi, balki siyosiy va harbiy faoliyatda ham muhim o'rin tutganini ko'rsatish maqsad qilingan. Bu yondashuv gender tasavvurlarining kengayishiga xizmat qiladi va an'anaviy stereotiplarni qisman bartaraf etadi. Kuzatuv tahlili shuni ko'rsatadiki, yangi tahrirdagi darsliklarda gender yondashuvi *uch asosiy* metod orqali amalga oshiriladi. *Birinchisi*, matn tanlovi orqali bo'lib, bunda ayol ijodkorlar va ayol obrazlariga alohida o'rin beriladi. *Ikkinchisi*, interpretativ topshiriqlar orqali bo'lib, ular o'quvchini matnni gender nuqtai nazaridan tahlil qilishga undaydi. *Uchinchisi* esa aksiologik yo'naltirish orqali bo'lib, bunda matn va izohlarda muayyan ijtimoiy va axloqiy qadriyatlar shakllantiriladi. Shu bilan birga, tahlil natijalari genderga oid yashirin me'yorlar ham mavjudligini ko'rsatdi. Xususan, ayol obrazining ko'pincha ma'naviy poklik, sadoqat va fidoyilik bilan bog'lanishi, erkak obrazining esa faoliyat va ijtimoiy ta'sir bilan uyg'unlashtirilishi darsliklarda muayyan gender stereotiplarining saqlanib qolayotganidan dalolat beradi. Bu holat o'quvchilarning matnni talqin qilish imkoniyatlarini ma'lum darajada chegaralashi mumkin. Adabiy matnni o'qitishda gender yondashuvi samaradorligini oshirish uchun didaktik neytrallikni ta'minlash, ya'ni matn va topshiriqlarda genderga oid oldindan belgilangan stereotiplarni kamaytirish muhimdir. Bunda o'quvchiga turli talqin imkoniyatlarini ochib beruvchi ochiq savollar tizimini kengaytirish, ayol va erkak obrazlarini ko'p qirrali ijtimoiy rollar doirasida ko'rsatish zarur. Mazkur yondashuv adabiy ta'limda tanqidiy fikrlash va mustaqil interpretatsiya kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Natijalar va muhokama. Epik asarlarni o'qitishda gender yondashuvini asoslashda yangi tahrirdagi adabiyot darsliklarida berilgan matnlar va ularga ilova qilingan metodik apparat muhim empirik manba vazifasini bajaradi. Xususan, 10-sinf adabiyot darsligida qadimgi epik qatlamga oid To'maris haqidagi rivoyat nafaqat tarixiy voqelikni aks ettiruvchi matn, balki gender rollarini qayta talqin qilish imkonini beruvchi didaktik vosita sifatida kiritilgan. Darslikda ushbu obraz "yurt mustaqilligi uchun kurashgan yetakchi shaxs" sifatida tavsiflanishi va unga doir topshiriqlarda qahramonning qaror qabul qilishdagi faolligini tahlil qilish talab etilishi ayol obrazining faol ijtimoiy subyekt sifatida

berilganini ko'rsatadi. Shuningdek, darslikda epik matnlarni o'rganishda qo'llanilgan metodlardan biri muammoli tahlil usuli hisoblanadi. Xususan, To'maris obraziga oid savollarda "qahramonning qarorlari qanday tarixiy zarurat bilan bog'liq" ekani aniqlanishi talab etiladi. Bu esa o'quvchini genderni biologik emas, balki tarixiy va ijtimoiy shart-sharoitlar bilan uzviy bog'liq hodisa sifatida anglashga yo'naltiradi. Shu jihatdan qaraganda, epik matnni o'qitishda gender yondashuvi matn mazmuni va metodik topshiriqlar uyg'unligida amalga oshiriladi. Qiyosiy tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, epik asarlarda ayol va erkak obrazlari funksional jihatdan o'xshash sifatlar bilan ifodalanishi mumkin. Masalan, 10-sinf darsligida To'maris obrazi orqali yetakchilik, jasorat va strategik tafakkur kabi sifatlar ochib berilgan bo'lsa, boshqa epik syujetlarda erkak qahramonlar ham aynan shu xususiyatlar bilan tavsiflanadi. Ushbu holatni darslikdagi topshiriqlar orqali qiyosiy tahlil qilish o'quvchilarda gender rollarining qat'iy chegaralanmaganligi haqidagi ilmiy tasavvurni shakllantirishga xizmat qiladi. Epik matnlarni o'qitishda *narrativ tahlil* metodining qo'llanilishi ham muhim natijalarni beradi. Darslikda syujet rivoji, konflikt va yechim jarayoniga doir savollar orqali o'quvchilar qahramonlarning xatti-harakatlarini tahlil qilishga jalb etiladi. Jumladan, "qahramonning qaroriga qanday omillar ta'sir ko'rsatgan" kabi savollar gender omilining ijtimoiy kontekst bilan bog'liqligini ochishga xizmat qiladi. Bu metod o'quvchilarning voqeani yuzaki emas, balki sabab-oqibat bog'liqligida tahlil qilish ko'nikmasini rivojlantiradi.

Gender yondashuvi samaradorligi uch komponentga bog'liq: matn tanlovi, interpretativ apparat va aksiologik yo'naltirish [6,65-b.;8,35-b.]. Ushbu elementlarning o'zaro uyg'unligi o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, mustaqil talqin va genderga oid stereotiplarni anglash kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, darsliklarda mavjud ayrim normativ yondashuvlarni qayta ko'rib chiqish va muqobil interpretatsiya imkoniyatlarini kengaytirish zarurligi aniqlanadi.

Xulosa. Adabiy ta'limda gender yondashuvini tizimli joriy etish o'quvchilarning matnni ko'p qirrali talqin qilish kompetensiyasini rivojlantirishda muhim omil sifatida e'tirof etiladi. Xalqaro tadqiqotlarda qayd etilishicha, badiiy matnlarni gender nuqtai nazaridan tahlil qilish o'quvchilarning ijtimoiy ongini kengaytirish va stereotip fikrlashni kamaytirishga xizmat qiladi [4, 52-b.]. Shu bilan birga, adabiy ta'lim jarayonida genderga sezgir metodik yondashuvni qo'llash o'quvchilarning tanqidiy tafakkurini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita hisoblanadi [5, 101-b.]. Kuzatuv doirasida yangi tahrirdagi adabiyot darsliklari kontent-tahlil qilinib, undagi matn tanlovi, savol-topshiriqlar tizimi va izohlarning gender mazmuni o'rganildi. Natijalar va muhokama qismi epik hamda lirik materiallar asosida gender yondashuvining amaldagi ko'rinishlarini aniqlash imkonini berdi. Ayol ijodkorlar merosining kengroq kiritilishi, shuningdek epik obrazlar misolida ayolning faol ijtimoiy subyekt sifatida tasvirlanishi ijobiy tendensiya sifatida baholanadi. Biroq tahlil jarayonida genderga oid ayrim yashirin me'yorlar va stereotip yondashuvlar saqlanib qolayotgani ham aniqlandi. Xususan, ayol obrazining ko'proq axloqiy-ruhiy

fazilatlar bilan, erkak obrazining esa faol ijtimoiy rol bilan bog'lanishi o'quvchilarning interpretatsion imkoniyatlarini ma'lum darajada cheklashi mumkin. Tahlillardan kelib chiqib adabiy matnni o'qitishda gender yondashuvining samaradorligi uch asosiy komponentga bog'lash mumkin. *Birinchisi*, matn tanlovi bo'lib, bunda ayol va erkak obrazlari hamda mualliflarining muvozanatli taqdim etilishi muhimdir. *Ikkinchisi*, interpretativ apparat bo'lib, savol-topshiriqlar tizimi o'quvchini muqobil fikrlashga yo'naltirishi zarur. *Uchinchi* komponent aksiologik yo'naltirish bo'lib, bunda qadriyatlar bir tomonlama emas, balki ko'p qirrali ijtimoiy kontekstda ochib berilishi lozim. Samaradorlikni ta'minlash uchun esa, o'qituvchilar uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqish, unda genderga sezgir o'qitish strategiyalari, muqobil talqin usullari va baholash mezonlarini kiritish zarur. Bu esa adabiy ta'lim jarayonida o'quvchilarning tanqidiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish va ijtimoiy hodisalarga ongli munosabat bildirish kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirzayeva Z., Jalilov K. Adabiyot. 10-sinf uchun darslik. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. – 112–128-betlar.
2. To'xliyev B., Karimov B., Usmonov Q. Adabiyot. 11-sinf uchun darslik-majmua. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2018. – 45–52-betlar.
3. <https://mindthegraph.com/blog/ru/what-is-triangulation-in-research/>
4. Butler J. Gender Trouble: Feminism and the Subversion of Identity. – New York: Routledge, 1990. – 33–78 p.
5. Tyson L. Critical Theory Today: A User-Friendly Guide. – New York: Routledge, 2006. – 83–102 p.
6. Xudoyberdiyeva D. Adabiy ta'lim metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 56–72-betlar.
7. Karimov B. Adabiy ta'limda zamonaviy yondashuvlar. – Toshkent: Akademiya nashr, 2019. – 88–104-betlar.
8. Abdullayeva M. Gender va ta'lim muammolari. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – 23–41-betlar.